

## OGAHIYNING “TA’VIZ UL-OSHIQIN” DEVONIDA DINIY LEKSIKA

*Bobomurotova Saboxat Rustamovna,  
Jizzax davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” devonida diniy leksikaga oid soʻzlarning berilishi haqida ma’lumotlar beriladi va xulosalar chiqariladi.*

*Kalit soʻzlar: din, tasavvuf, Rab, Haq, Haq Taolo, Tangri, Hizr, Sulaymon, Iso, jannat, doʻzax, iyd.*

## RELIGIOUS VOCABULARY IN «TA’VIZ UL-ASHIQIN» DEVON OF OGAHI

*Bobomurotova Sabokhat Rustamovna,  
Researcher of Jizzakh State Pedagogical University*

*Abstract. In this article, information is provided and conclusions are drawn about the giving of words related to the religious lexicon in Ogahi’s «Ta’viz ul-ashiqin» book.*

*Key words: religion, Sufism, Rab, Haq, Haq Taalo, God, Hizr, Solomon, Jesus, heaven, hell, Eid.*

## РЕЛИГИОЗНАЯ СЛОВАРЬ В «ТАВИЗ УЛ-АШИКИН» ДЕВОН ОГАХИ

*Бобомуротова Сабохат Рустамовна,  
научный исследователь Джизакского государственного педагогического университета*

*Абстракт. В данной статье представлена информация и сделаны выводы о даче слов, относящихся к религиозной лексике, в книге Огахи «Тавиз уль-ашикин».*

*Ключевые слова: религия, суфизм, Раб, Хак, Хак Таало, Бог, Хизр, Соломон, Иисус, рай, ад, Ид.*

Kirish. XIX asrda Xivada yashab ijod etgan shoir Muhammad Rizo Ogahiy oʻzining asarlari bilan oʻzbek adabiyotida oʻz oʻrniga ega boʻlgan shoirdir, u turli janrlarda ijod qilgan va sheʼr yozish bilan birga tarixiy asarlar ham bitgan. “Ogahiyning diniy-ilohiy fikr-qarashlari islomiy tushunchalar, ayniqsa, Qur’oni Karim ta’sirida shakllangani, shubhasiz. Uning tasavvufiy dunyo bilan bogʻlanishi Najmiddin Kubro tariqiga, balki undan oldinga ham uzayib borar. Ogahiy Alisher Navoiyning she’riyatdagi yoʻlini davom ettirgan eng sodiq izdosh va eng talantli shogirdidir. Uning “Ogahiy, kim topqay erdi sozi nazmingdin navo, Bahra gar yoʻqtur Navoiyning navosidan sanga” deyishi, shogirdlik eʼtiqodi va ehtiromining samimiy ifodasi edi...”[1].

Tasavvuf soʻzi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da quyidagicha berilgan:

Tasavvuf [a. – jundan qilingan kiyim, poʻstin kiyish; sufiylik]. Islomda insonning ruhiy dunyosi toʻgʻrisidagi, uni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yoʻllovchi taʼlimot, diniy eʼtiqod; soʻfiylik[3]. Demak, tasavvuf – bu diniy eʼtiqod.

Ushbu soʻz “Oʻzbek tilining etimologik lugʻati”da quyidagicha berilgan:

Tasavvuf – bu arabcha soʻz taʼsavvuf(un) shakliga ega (APC, 271); oʻzbek tiliga sad undoshini s undoshiga almashtirib qabul qilingan: taʼsavvuf □ tasavvuf; “soʻfiy boʻldi” maʼnosini anglatuvchi V bob taʼsavvufa feʼlidan (APC, 450) hosil qilingan masdar boʻlib (ATT, 196), “ilohiy kuchlarga ishonuvchi diniy eʼtiqod” (sufizm) maʼnosini anglatadi[4].

Din soʻzi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da quyidagicha berilgan:

“Din” soʻzi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da quyidagicha taʼriflangan. “Din [a.- eʼtiqod, ishonch]. Ilohiy kuchga, Xudoga ishonishga asoslangan dunyoqarash, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmui”[3].

Ushbu soʻz “Oʻzbek tilining etimologik lugʻati”da quyidagicha berilgan:

Din – bu arabcha soʻz boʻlib, dīn(un) shakliga ega (APC, 271); oʻzbek tiliga choʻziq ī unlisi i unlisiga almashtirib qabul qilingan: dīn □ din. Bu soʻz asli “itoat qildi” maʼnosini anglatuvchi dāna feʼlining “ilohiy kuchga sigʻindi” maʼnosi bilan (ATT, 142), “ilohiy kuchga asoslangan taʼlimot” maʼnosini anglatadi[5].

Diniy leksika deyilganda har bir tilda miflar va din taʼsirida shakllangan, keng qamrovga ega boʻlgan lugʻat qatlami tushuniladi. Diniy leksika har bir davr tilida oʻziga xos tarzda ifodalanadi. Bunday soʻzlar Ogahiy ijodida koʻplab uchraydi.

Diniy leksikaning oʻzini ham maʼlum mavzuiy guruhlariga boʻlish mumkin:

1. Yaratuvchiga murojaatlar;
2. Payg'ambarlarning nomlari;
3. Diniy joylar;
4. Diniy marosimlar.

1. Yaratuvchiga murojaatlar. Ogahiy devonining deyarli har bir g'azalida Allohga murojaat ifodalangan. Juda ko'p holatda Allohga murojaat "Yo Rab", "Tangri" so'zlari orqali, ayrim o'rinlarda esa Haq Taolo so'zi orqali ifodalangan:

Yo rab, ul xilvatki, ushshoq ahlidur mahram ango,

Doxil et mahzi karamdin bu hazinni ham ango [3].

Ushbu baytda Allohga "Yo rab" deb murojaat qilgan. Yo rab, oshiqalar ahlining mahramidan yashinishga menga shunday maxfiy joy berginki, toki, xolis marhamatingni menga daxldor qilgin.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu so'zlar quyidagicha izohlangan:

Rab(b) [a. – olloh, xudo; janob; hukmdor; xo'jayin] din. Xudo, tangri, parvardigor[3].

Ushbu so'z etimologik lug'atda quyidagicha keltirilgan:

Rab(b) – bu arabcha so'z rabb(un) shakliga ega (APC, 281); "parvarish qildi" ma'nosini anglatuvchi rabba fe'lining I bob masdari bo'lib (APC, 281), to'g'ri ma'nosida "xo'jayin" ma'nosini, ko'chma ma'noda esa "tangri" ma'nosini anglatadi[3].

Tangrig'a aylab tavakkul, qil qanoatin shior,

Ikki olamda kerak bo'lsa agar izzat sango [59].

Ushbu baytda esa Allohga Tangri deya murojaat qilgan. Agar senga ikki olamda ham izzat kerak bo'lsa, ikki dunyo baxt-saodatiga erishishni xohlasang, yaratgan zotga tavakkal qilib, qanoatni, sabr-bardoshni o'zingga shior qil.

Tangri so'zi izohli lug'atda quyidagicha berilgan:

Tangri [mo'g'. Тəngər – osmon; xudo] Olloh, Xudo, parvardigor[3].

Ushbu so'z Navoiy asarlari lug'atda quyidagicha berilgan:

Tangri – xudo, tangri[2].

Haq taolo o'z kalomida dedi ufu bi ahd,

Borchag'a lozimdur etmak ahdig'a amdo vafo [3].

Bu baytda Haq taolo deya murojaat qilingan. Alloh o'zining kalomida ahd qilib aytdiki, agdiga vafo qilmoq barchaga farzdir.

Haq va taolo so'zlari izohli lug'atda quyidagicha keltirilgan:

Haq [a. – to'g'ri, rost, chin, haqqoniy; huquq; adolat; maj. xudo].

1. Haqiqiy holatga mos; haqqoniy, rost.
2. Haqiqiy holat; haqiqat.
3. Shaxs bildiruvchi so'zlar bilan qo'llanib, haqiqatning shu so'z bildirgan shaxs tomonida ekanini bildiradi.
4. Biror narsa, ish-harakat uchun qonuniy bo'lgan, talab, tartib-qoidaga to'g'ri keladigan asos, erk-imkoniyat; huquq.
5. Huquq, qonun va sh.k. yuzasidan biror kimsa yoki narsaga tegishli hissa, to'lanadigan yoki olinadigan narsa.
6. Ish, mehnat, xizmat evaziga to'lanadigan pul yoki boshqa narsa.
7. Din. Xudo, olloh, tangri, parvardigor (xudoning sifatlaridan biri). Haq taolo.
8. (3-sh. Egalik shakli – haqi, haqqi). Biror gap, fikrning o'zi bog'lanib kelgan so'z anglatgan so'z anglatgan shaxs, narsa va sh.k. ni o'rta qo'yib angalayotgani ma'nosini bildiradi[2].

Ushbu so'zlar etimologik lug'atda quyidagicha keltirilgan:

Haq – bu arabcha so'z haqq(un) shakliga ega (APC, 184); o'zbek tiliga hoyi hutti undoshini h undoshiga almashtirib, so'z oxiridagi qq tovushlaridan birini tashlab qabul qilingan: haqq □ haq; haqqa fe'lining "haqiqat, chin bo'ldi" ma'nosi bilan (APC, 184); hosil qilingan I bob aniq nisbat sifatdoshi bo'lib, arab tilida "chin, haqiqat" ma'nosini anglatadi (APC, 184); bu so'z ЎТЇЛдаги (II, 692) haq so'zining birinchi ma'nosiga to'g'ri keladi.

Taolo – bu arabcha so'z asli ta'ālīn shakliga ega (APC, 536); o'zbek tiliga cho'ziq fathali ayn tovushini â tovushiga, so'z oxiridagi in qismini â tovushiga almashtirib qabul qilingan: ta'ālīn □ taālā (taolo); ko'p ma'noli talā fe'lining "yuksak bo'ldi" ma'nosi bilan (APC, 536); hosil qilingan VI bob masdari bo'lib, yuksaklik ma'nosini anglatadi; bu so'z anglatgan belgi Olloga nisbat berilib, Ollo taolo

birikmasi tarkibida ishlatiladi.

2. Payg‘ambarlarning nomlari. Ogahiy devonida juda ko‘plab payg‘ambarlarning, jumladan, Sulaymon, Iso, Ilyos, Yusuf, Ya‘qub, Ayyub, Odam alayhissalom nomlarini uchramiz. Devonda Sulaymon payg‘ambarning nomlari 7 marta, Iso alayhissalomning nomlari 19 marta qo‘llangan.

Davlati vaslidin el ichra Sulaymonlig‘ topib,  
Halqai baxti qavi ilkimda xotamdur mango.

Qo‘limdagi muhr o‘yib tushirilgan uzugimga kuchli sadoqatligimdan davlatimga, mamlakatimga bog‘lanib, el ichida Sulaymonlig‘ topdim.

Sulaymon so‘zi etimologik lug‘atda quyidagicha berilgan:

Sulaymon – bu so‘z miloddan oldingi I asrda yashab, o‘sha davrdagi qudratli Isroil davlatining podshosi bo‘lgan kishining ismi bo‘lib, asli Shelomo shakliga ega bo‘lgan, keyinchalik Solomon shaklida talaffuz qilingan (Malaya ensiklopediya, VIII, 743); arab tilida bu ism tovush jihatdan o‘zgartirilib, Sulaymon shakliga o‘tgan (APC, 371), o‘zbek tiliga shu tovush tuzilishi bilan qabul qilingan.

Ilyos-u Xizr hamrahi iqbol-u baxtdek,

Davlat bila qo-yu taraf o‘lsa xirom ango [4].

Ilyos – Xizr alayhissalomlarning hamrohi, ya‘ni yo‘ldoshi baxt-iqbol bo‘lganligi uchun, davlat qaysi tarafda bo‘lsa ham unga tomon yuradi.

Ilyos va Xizr so‘zlari Navoiy asarlarining izohli lug‘atida quyidagicha berilgan:

Ilyos – a. Xizrga o‘xshash obihayot ichib, mangu tirik, deb faraz qilingan payg‘ambar (Xizr quruqlikda, Ilyos esa suvda kishilar hamrohi deyiladi)[2].

Xizr – a. afsonaga ko‘ra “obi hayvon” (tiriklik suvi)ni izlab topgan va undan ichib, doimiy tirik yurgan bir payg‘ambarning nomi. Kishilarga yo‘ldoshlik bilan mashhur[2].

Shakar demak g‘alatur la‘lingga jonbahshliq ichra,

Qachon Iso-u Maryam mu‘jizin shakkar qilur paydo.

Sening labingni shakar deyish g‘alati, sababi shakarning faqat shirasi bor. Labing esa nafaqat shirin, balki, unda hayot beruvchi xususiyat bor. Xuddi, Iso-yu Maryamning o‘likni tiriltiruvchi mo‘jizasi singari.

Iso so‘zi Navoiy asarlarining izohli lug‘atida quyidagicha berilgan:

Iso, Iyso – a. Xristianlar payg‘ambari (she‘rda ko‘pincha o‘likni tirgizuvchi kuch timsoli sifatida ishlatiladi)[2].

Odam qoshida iblis erkanmu va yo yorim

Olida raqib otlig‘ badtarmu ekan oyo.

Agar ko‘rsa edi Yusuf malohatlig‘ jamolingni,

Der edi sidq ila: “Ruxsori toboning‘a sallamno”.

Muqaddas kitoblarda keltirilishicha, Yusuf alayhissalom go‘zallikda tengsiz bo‘lganlar. Shunga nisbat berib, shoir yorining husn-jamolini Yusuf alayhissalomdan ham go‘zal ekanligini ta‘riflagan. Agar Yusuf sening malohatli jamolingni ko‘rganda, samimiyat bilan “go‘zalligingga tasanno” der edi. Yor go‘zalligi o‘ta mubolag‘ali ta‘riflangan.

Xiradur sansiz ko‘zim ko‘rguz yuzingnikim, erur

Ko‘rsa Yusufning jamolin diyda Ya‘qub xo‘b.

Hech kim mandek to‘za olmas jafo-u javringg‘a

Kim, balo anvo‘ig‘a sabr etkali Ayyub xo‘b.

Xuddi Yusufning jamolini ko‘rganda Ya‘qubning ko‘zi yorishgandek, gar yuzingni ko‘rsatgin, sensiz ko‘zim xiradir. Sening berayotgan azoblaringga hech kim mendek bardosh bera olmaydi. Turli-tuman balolarga sabr etgan Ayyub alayhissalom singari.

Ki ko‘b rahravni nokom o‘tkaribdur,

Na topti Nuh maqsudin na Yofis.

Nuh – a. uzoq umr ko‘rgan deb faraz qilinadigan payg‘ambar nomi[2].

3. Diniy joylar. Devonda diniy makonlarga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, jannat, do‘zax, ka‘ba kabi joy nomlari keltirilgan. Ayniqsa, jannat so‘zini juda ko‘p uchramiz. O‘z-o‘zidan shuni anglashimiz mumkinki, har bir mo‘min banda singari Ogahiyning ham jannatni orzu qilgani, unga erishish uchun farz amallarni bajarishga harakatini ko‘ramiz. Ogahiyning “Yor hamdamdur mango” g‘azalida jannatni qanchalik xohlaganligini anglash qiyin emas.

Istabon jannatnikim, ul gul bahori husnidin,  
Bazmi ishrat gulshani sarsabza hurramdur mango [2].

Baytda yorning go'zalligini ifodalashda gul fitonimidan foydalangan. Bizga ma'lumki, bahorda tabiat singari insonlar ham yanada chiroyli bo'lib ketadi. Ogahiy ham shuni nazarda tutib, har qanday bazm gulshanidagi hurramlikdan, yorning bahoriy husnidan, gul kabi go'zalligidan jannatni istaydi. Diniy kitoblarda Jannatning nihoyatda go'zal, judayam hushbo'y iforli joy ekanligi ta'riflanadi.

Jannatda doimiy chanqoqni qondiruvchi Kavsar suvi borligi haqida ham ushbu g'azalda aytilgan.

Jannat so'zi izohli lug'atda quyidagicha berilgan:

Jannat [a. – behisht; bo'ston, serbog' daraxt, bog']. 1. Din. Begunoh, taqvodor kishilar u dunyoda yashaydigan rohat-farog'atli joy, behisht. 2. Ko'chma. Hamma narsa muhayyo bo'lgan, obod, rohatbaxsh, xushmanzara joy[3].

Ushbu so'z etimologik lug'atda quyidagicha berilgan:

Jannat – bu arabcha so'z çannat(un) shakliga ega (APC, 141); asli “yashirdi” ma'nosini anglatuvchi çanna fe'lidan hosil qilinib, “bog'” ma'nosini anglatuvchi çann(un) masdarining (APC, 140) “yakka”, “bir dona” ma'nosini ifodalovchi -t (ta marbuta) qo'shimchasi bilan hosil qilingan shakli bo'lib (ATF, 373), arab tilida al çannatu tarzida al aniqlik artikli bilan ishlatilib, “begunoh kishilarning ruhi narigi dunyoda rohat-farog'atda yashaydigan makon”, “bihisht” ma'nosini anglatadi; o'zbek tiliga bu so'z aniqlik artiklisiz qabul qilingan. O'zbek tilida Jannat so'ziga “joy”, “maskan” ma'nosini anglatuvchi arabcha makon so'zini qo'shib, jannatmakon tarzida ishlatish o'rinli emas[4].

Yuz uzra tabassumlig' lablarmu ekan, yohud

Jannat aro mavj urg'on kavsarmu ekan oyo.

Bunda insonning tabassumli lablari yuzining go'zalligiga yanada go'zallik ulashadi, go'yo Jannatning salqinligiga, serjiloliga mavj urgan kavсар yanada orom baxsh etgani singari juda yoqimli tuyuladi.

Kavsar so'zi izohli lug'atda quyidagicha berilgan:

Kavsar [a. serob, mo'l; jannatdagi daryo nomi] Islom dini e'tiqodiga ko'ra jannatdagi g'aroyib daryo yoki hovuzning nomi[3].

Sening bila gar esam bog' erur manga do'zax,

Valek do'zax o'lur sandin oyr-u bog' mango.

Agar sen bilan bo'lsam, hatto do'zax ham menga bog' bo'lib tuyuladi. Lekin, sen yonimda bo'lmasang bog' ham men uchun do'zax bo'ladi.

“O'zbek ilining izohli lug'at”ida do'zax so'zi quyidagicha berilgan:

Do'zax [f. jahannam]. 1. Diniy tasavvurga ko'ra: o'lgan, din talablarini bajarmagan gunohkor bandalar oxiratda abadiy jazolanadigan joy; jahannam. 2. Ko'chma. Kishini ortiq azob-uqubat va mushkul ahvolga soluvchi sharoit, muhit, holat[3]. Ushbu so'z etimologik lug'atda quyidagicha berilgan:

Do'zax – bu so'z asli [duzax] shakliga ega bo'lib, “badaxloqlik”, “buzg'unchilik” ma'nosini anglatgan (PPC, 229); shu ma'nodan “narigi dunyoda gunohkor bandalar abadiy azoblanadigan joy”, “jahannam” ma'nosi o'sib chiqqan (PPC, 229; ЎТЎЛ, I, 241). Bu ot tojik tilida do'zax tovush tarkibiga ega (ТЖРС, 143), o'zbek tiliga shu shakli olingan[4].

Yuz yil etsa say'yi etmas Ka'bai maqsudig'a,

Etmadi har kimki onda qasdi ihrom aylagach.

4. Diniy bayram. Islom dinida faqat hayit bayrami borligi bizga ma'lum. Ogahiy ijodida ham hayit bayramiga alohida e'tibor qaratilgan.

Jamoling partavidin iyd subhidek munavvar qil,

Qororg'on kulbam ichra mehri anvardek maqom aylab.

Jamoling shulasi go'yo iyd tongidek nur sochganidan, qorong'i kulbanga quyoshning eng zarrin nurlari sochilgandek charog'on, nurli bo'ladi.

Iyd so'zi izohli lug'atda quyidagicha berilgan:

Iyd [a. – bayram, hayit] diniy bayram; hayit[3].

Ushbu so'z etimologik lug'atda quyidagicha berilgan:

Iyd – bu arabcha so'z ʻiyd(un) shakliga ega (APC, 548); o'zbek tilida kasrali ayn tovushini i tovushiga almashtirib talaffuz qilinadi. Bu so'z asli ʻāda fe'lining (APC, 548); “bayram qildi” ma'nosidan hosil



qilingan masdar bo‘lib (УАЯ, 568), arab tilida “bayram” ma’nosini, o‘zbek tilida esa “hayit” ma’nosini anglatadi[4].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, shoirning ko‘plab g‘azallarida Allohga murojaat qilganligiga, payg‘ambarlarning nomlarini bir necha marta keltirganligiga yuqoridagi baytlardan ham guvoh bo‘ldik. Ayrim o‘rinlarda Yo rab, boshqa g‘azallarida Tangri, Haq, Haq Taolo shaklidagi yaratuvchiga murojaatini ko‘rib chiqdik. Muhammad Rizo Ogahiy devonida diniy leksikaga oid so‘zlarni uning har bir g‘azalida uchratamiz. “Ogahiy tasavvuf shoiri emas, u tasavvufning muhibi. U tasavvufiy hayot go‘zalligi va haqiqatlariga muhib nazari bilan qaragan... Ogahiyning she’riyati – tasavvuf bilan aloqador she’riyat”[1].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Haqqulov I. “M.R.Ogahiyning o‘z.mumtoz ad.da tutgan o‘rni” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani. – T.: 2020-yil 20-may. – B.10.

2. Navoiy asarlari lug‘ati. Alisher Navoiy asarlarining ўn besh tomliigiga ilova. Faqur Gulom nomidaги адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент, 1972. 784 бет.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш томлик. I том – Тошкент: ЎзбМЭ, 2006. 680 бет.

8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II том. – Тошкент: Университет, 2003. 600 бет.

9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III том. – Тошкент: Университет, 2003. 283 бет.